




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

**XORAZM XALFACHILIK SAN'ATI: TARIXIY ILDIZLARI, IJRO
AN'ANALARI VA ZAMONAVIY TALQINI**

**THE ART OF KHALFACHILIK IN KHOREZM: HISTORICAL ROOTS,
PERFORMANCE TRADITIONS, AND CONTEMPORARY INTERPRETATIONS**

Ruxshona XASANBOYEVA,
TOSHDOTAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZCFS3062

Annotation. *The article analyzes the historical roots of the Khorezmian halfachilik art, performance traditions, musical instruments, diversity of the repertoire, and modern development. It also highlights the role of female halfas in social life and how art reflects their spiritual world.*

Key words: *khalfa, khalfachilik, Khorezm, Khorezm art, ritual, oral creativity, harmon, harmon music, lapar, women's art, ancient traditions, women's creativity, Khorezm folklore*

Xalfachilik san'atining ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar, jumladan, To'proq qal'a, "Shohli zal", "Raqsga tushuvchi niqoblilar zali" singari joylar qadimiy Xorazmda marosim san'ati keng rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu san'at shakli qadimgi e'tiqodlar, zardushtiylik va sosoniylar madaniy ta'siri bilan shakllangan.

Xorazm xalfachilik san'ati XX asrning 30-yillaridagina professional folklorshunoslarning nazariga tusha boshladi. Yirik folklorshunos olim Hodi Zarif birinchilardan bo'lib, xorazmlik mashhur xalfa Xonim Suvchini kashf qildi. Bu jarayonni folklorshunos shunday xotirlaydi:

"1930 yil, yozning issiq kunlari. Xivada, Doshhovlidagi Xorazm muzeyi binosida tadqiqot ishlarini boshlab yubordik. O'zbekiston xalq komissarlari soveti huzuridagi O'zbekiston davlat ilmiy-tekshirish instituti (UZGNII) Xorazm ekspeditsiyasining bazasi shu binoda edi. Ekspeditsiyaning vazifasi juda katta va keng miqyosda. Chunki bunday ekspeditsiya Xorazmda qadimiy diyorga birinchi martaba borgan. Maqsad – fanga yangilik kiritmoq". Folklorshunos olimning yozishicha, ikki mashhur xalfalar Onajon Sobirova va Ojiza – Onabibi Otajonovalarning safiga Roziya Matniyozova, Safargul Otamurodova, Sharifa Eshjonova, Saodat Xudoyberganova, Bikajon Bobojonova va boshqalar ham kelib qo'shilgan. Tadqiqotda ushbu xalfalardan tashqari, turli-tumanlar hududida yashovchi yigirmaga yaqin xalfalarning nomlari tilga olingan. Anash xalfaning 4 ta, Ojizaning 7 ta she'ri ilk marotaba kitobxonlarga havola etilgan. J.Qobulniyozov tomonidan nashrga tayyorlangan ikki nafar xalfaning she'rlari zamonaga mos tarzda tanlangan bo'lishiga qaramasdan, ularni e'lon qilish folklorshunoslik uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Xalfa ayollar jamiyatda faqat san'atkor emas, balki ruhiy yetakchi, ayollar orasida muqaddas figuraga aylangan. Ular orzu-armonlarni ifodalovchi, nasihatgo'y, ba'zida esa ma'naviy davolovchi bo'lib xizmat qilishgan. Bugungi kunda ham xalfa san'ati ayollar orasida o'ziga xos ijtimoiy institut vazifasini o'taydi. N.Quronboyevning tadqiqotlari natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, xalfalar faqat to'y marosimlarida emas, "Beshik to'yi", "Chilladan chiqarish"(chaqaloq tug'ilganidan 3 kun o'tib) "Lachak o'rash" yana har xil tug'ilgan kun tadbirlarda ishtirok e'tib odamlarni mamnun etishlarni aytib o'tgan. Xalfalar faqat insonlarga ruhiy xordiq beribgina qolmay xalqni tarixini ham gavdalandirishgan.

Xalfalar san'ati, ularning kuylash manerasiga qiziqish tobora ortib bordi. Shu jarayonda Xorazm musiqa-shunoslari ham xalfa qo'shiqlarini to'plash va uning musiqaviy kuylari-ni notaga tushirish ustida ishlay boshladilar. Xalfalar ko'pincha garmon, tor, daf, santur, qayroq, zang, bulaman kabi asboblarda kuylashadi. Xususan, garmon Xorazm xalflari orasida eng mashhur cholg'u bo'lib, uning musiqasi bilan birga raqs tushiladi. Bundan tashqari, piyola va yog'och qoshiq bilan ritmik effektlar yaratiladi. Xalfa ijodida "Yor-yor", "Kelin salom", "Qudalar keldi", "Laparda" singari janrlar mavjud. Bu qo'shiqlar orasida sevgi, ayriliq, orzu-umid, ijtimoiy adolat

mavzulari tilga olinadi. Shuningdek, xalq orasida og‘zaki rivoyatlar va dostonlarni ham xalfa ayollar sahna yoki marosimda aytib berishadi.

Ayol xalfalarning paydo bo‘lishini muayyan dinlarni targ‘ib qilishi bilan bog‘liq ekanligi haqiqatga yaqin. Chunki ularning “Avesto” “goh”larini, keyinchalik Qur‘on oyatlarini qiroat bilan o‘qishlari bu fikrni tasdiqlaydi. Xorazmiy tilidagi karapa, karpa so‘zlarining xalfa atamasiga aylanishi fonetik o‘zgarishning bir ko‘rinishidir. Shuning uchun ham ayol xalfalar faqat to‘y marosimlarida emas, balki motam marosimlarida ham ishtirok etadilar. Ular vafot etgan odamning yaqinlarini ruhiyatini ko‘tarib, Qur‘on oyatlari va hadislaridan o‘qib berishgan.

Xorazmliklarning ta’kidlariga ko‘ra, xalfalar mamlakatda, shahar va qishloqlarda ro‘y bergan har xil voqea va hodisalar to‘g‘risida darhol qo‘shiq to‘qib, buni to‘y-tomoshalarda kuylab, odamlarni mamnun etar ekanlar: bugina emas, ba‘zan to‘y-tomoshalarda ro‘y bergan odobga xilof, g‘ayri tabiiy holatlarni ham darrov satira ostiga olib, jamiyat orasida o‘zini tuto olmagan odamlarning sharmandasini chiqarar ekanlar. Shuning uchun ham xalfalar oddiy odamlar emas, ehtirosli insonlar sirasiga kiradlar. Bunga misol qilib Shukur shoirani keltirishimiz mumkin, uni xalfalikdan shoiralik darajasiga ko‘targan kuch asli firoq edi. Ha, shunday ham bo‘ladi: ba‘zan shoir yoxud shoira o‘zi chekkan dard-alamdan, omonsiz judolikdan ilhom olib, ko‘z yoshi bilan she‘r yozadi. Shukur shoira yolg‘iz bolasidan ayrilib, qanot-quyruksiz qolgan qush holatiga tushadi. Sho‘rlik ona bolasiga qarab qanot qoqadi – ucholmaydi, tolpinadi – etolmaydi...

Xalfalar ayni zamonda mohir bastakorlardir. Ular o‘z ijrolaridagi ashulalar uchun o‘zlari kuy yaratganlar. Hozir radioda va konsertlarda ijro etilayotgan quvnoq kuylarning bir qismi ana shu bastakor halfalar ijodidir. Shular jumlasidan:

“Bu kulbai ehzona ul mohi tobon geldi.”

Ushbu yuqoridagi qo‘shiq ham mashhur xalfa Ojiza ijodga mansub bo‘lib ko‘plab mashhur san‘atkorlar tomonidan ijro qilib kelinmoqda.

Xorazm xalfachilik san‘ati o‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob namunasi bo‘lib, uning asrlar davomida saqlanib kelayotganligi bu san‘atning xalq qalbidagi chuqur ildizlari borligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ushbu madaniy merosni o‘rganish, saqlash va yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Xulosa

Xorazm xalfachilik san‘ati – bu oddiy san‘at turi emas, balki xalq ruhiyatining, tarixiy ongining va ayol kuchining musiqiy tilda ifodalanishidir. Bu san‘atda ohanglar bilan inson hayoti, marosimlar orqali esa jamiyat tuzilmasi kuylanadi. Xalfalik – bu ayol ovozi orqali jamiyatga ta’sir o‘tkaza olgan, tarixiy voqelikda o‘z o‘rnini topgan, tinimsiz rivojlangan va hanuzgacha hayotiy zaruriyat sifatida yashab kelayotgan noyob hodisadir. Ko‘plab xalqlar madaniyatida ayol obrazlari asosan uy-ro‘zg‘or, tarbiya va nafosat bilan bog‘liq bo‘lsa, Xorazmda xalfa ayollar musiqiy marosimlarning bosh qahramoniga aylanishi – ayolning faqat hissiy emas, balki ijtimoiy va ma’naviy yetakchi bo‘la olganini isbotlaydi. Ular og‘zaki ijodning tirik tashuvchilari bo‘lishgani bilan birga, xalq kayfiyatining terapevtik shaklda ifodachilaridir. Bugun “psixoterapiya” deb atalayotgan tushuncha aslida xalfa ayollar ohangida, yurakdan chiqqan nasihatlarida, duolarda asrlar ilgari mavjud edi.

Xalfachilikning zamirida bir vaqtning o‘zida ko‘plab qatlamlar yashiringan: diniy bilimlar, marosimiy tartiblar, xalq estetikasi, ayol dardi, ijtimoiy norozilik, ichki orzular, va eng muhimi, xalqning o‘z tarixini unutmaslikka bo‘lgan harakati. Bu jihatlar xalfachilikni oddiy folklor emas, balki madaniyatning tirik hujayrasi – genetik xotira sifatida talqin etishga imkon beradi.

Yana bir e’tiborga molik jihat – bu san‘at asosan og‘zaki an’ana asosida avloddan-avlodga o‘tgan. Ya’ni xalfa san‘ati hech qachon notalarda emas, qalblarda yashagan. Bu esa xalfa ijodining har bir ijrochiga xos bo‘lishini, o‘z shaxsiy uslubi, ovoz rangi, ma’naviy kayfiyati bilan ajralib turishini ta’minlagan. Aynan shuning uchun ham bu san‘atni o‘rgatish kitobdan emas, qalbdan boshlanadi.

Zamonaviy dunyoda ko‘plab milliy qadriyatlar yo‘qolib borayotgan bir paytda, xalfachilik san‘atining estradaga, hatto diniy marosimlarga moslashib yashab qolayotganini ko‘rish – bu biz uchun umid, bu xalq ruhining o‘chmasligini bildiruvchi belgidir. Qaysidir ma’noda, xalfa ayollar

bugungi kunda ham o‘z avlodini ichki dunyosini eshitishga, tuyg‘ularni gap bilan emas, ohang bilan ifoda etishga o‘rgatmoqda.

Shunday ekan, xalfachilik san’atiga qarab biz faqat tarixni emas, o‘zimizni, xalqimizning ruhiy tuzilishini, ayolning ijtimoiy kuchini va san’atning ilohiy ifodasini ko‘ramiz. Bu san’atni faqat o‘rganish emas, balki unga qayta hayot berish, yosh avlodga uning ma’nosini tushuntirib yetkazish – bu bugungi zamonaviy madaniyatshunoslik oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Chunki xalfa ayollarning ovozi – bu o‘zbek ayolining yuragi, xalqning xotirasi, millatning ovozidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. (2012). Xorazm san’ati va madaniy merosi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Karimova N. (2018). “Xorazmda xalfachilik san’atining shakllanishi va rivojlanishi”. // Madaniyat va san’at jurnali, – №2, 45-50-betlar.
3. Mamatqulov A. (2018). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Akademnashr.
4. Qodirova Z. (2019). O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Rashidov Z. (2020). Marosim san’ati va ayollar obrazlari. – Samarqand: Ilm ziyo nashriyoti.
6. Ro‘zimatova G. (2021). Ayollar ijodi va folklor an’analari. – Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti.
7. Xoldorova S. (2015). “To‘y marosimlari va ayollar roli Xorazm an’anaviy madaniyatida”. // O‘zbek san’ati tarixi ilmiy to‘plami.

